Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati .....	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari .....	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari .....	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar .....	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati .....	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) .....	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	
Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar.....	775
<i>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</i>	
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili .....	780
<i>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</i>	
Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari .....	784
<i>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</i>	
Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish.....	789
<i>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</i>	
Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri...	793
<i>M. B. Pulatova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili .....	796
<i>Maraimova Muxtabar Pulatovna</i>	
Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari.....	801
<i>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</i>	



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli .....	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<b>Sobirov Avazbek Anvarovich</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<b>Sultonova Nurxon Anvarovna</b>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<b>Tolipova Shohista Qudrat qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<b>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</b>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<b>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</b>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<b>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<b>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</b>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<b>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<b>Bilolov Inomjon O'ktamovich</b>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<b>Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<b>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi</b>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<b>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</b>	

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH TUSHUNCHASINING ILMIY- NAZARIY TAHLILI

Maraimova Muxtabar Pulatovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish institutining mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tizimida inson resurslarini boshqarishning mohiyati, tarkibiy elementlari hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tizimli ravishda o'rganilib, inson resurslarini boshqarishning turli yondashuvlari qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kadrlarni tanlash, moslashtirish, rag'batlantirish va kasbiy rivojlantirish jarayonlarining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish modeli taklif etilgan bo'lib, unda boshqaruvning pedagogik, psixologik hamda tashkiliy-metodik jihatlari uyg'unlashtirilgan. Maqola materiallaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari, pedagog kadrlar va soha mutaxassislari amaliy faoliyatida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** inson resurslarini boshqarish, maktabgacha ta'lim, kadrlar boshqaruvi, pedagogik xodimlar, kasbiy rivojlantirish, motivatsiya.

**Abstract:** This article analyzes the scientific and theoretical foundations of human resource management in preschool education institutions. The main objective of the study is to identify the essence, structural elements, and specific features of human resource management within the preschool education system. The paper systematically reviews relevant domestic and foreign literature and provides a comparative analysis of various approaches to human resource management. In addition, the specific aspects of recruitment, adaptation, motivation, and professional development of personnel in preschool education institutions are examined. As a result of the study, a model of human resource management for preschool education institutions is proposed, integrating pedagogical, psychological, and organizational-methodological components. The findings of the article can be used in the practical activities of preschool institution managers, pedagogical staff, and field specialists.

**Key words:** human resource management, preschool education, personnel management, pedagogical staff, professional development, motivation.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы научно-теоретические основы управления человеческими ресурсами в организациях дошкольного образования. Основной целью исследования является определение сущности, структурных элементов и специфических особенностей управления человеческими ресурсами в системе дошкольного образования. В статье системно изучены отечественные и зарубежные научные источники, а также проведён сравнительный анализ различных подходов к управлению человеческими ресурсами. Кроме того, раскрыты особенности процессов подбора, адаптации, мотивации и профессионального развития кадров в дошкольных образовательных организациях. В результате исследования предложена модель управления человеческими ресурсами, основанная на интеграции педагогических, психологических и организационно-методических аспектов. Материалы статьи могут быть использованы в практической деятельности руководителей дошкольных учреждений, педагогических работников и специалистов данной сферы.

**Ключевые слова:** управление человеческими ресурсами, дошкольное образование, управление персоналом, педагогические работники, профессиональное развитие, мотивация.

## KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning inson resurslarini boshqarish faoliyati strategik ahamiyatga ega bo'lib, u pedagog xodimlarning kasbiy va shaxsiy salohiyatini aniqlash, rivojlantirish, rag'batlantirish hamda samarali foydalanish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Nazariy nuqtayi nazardan, mazkur faoliyat strategik boshqaruv, inson resurslarini boshqarish va pedagogik tizim nazariyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, direktorning operativ va strategik faoliyati orqali izchil amalga oshiriladi.



Inson resurslarini boshqarish maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik va ma'muriy kadrlarning professional salohiyatini strategik maqsadlar yo'nalishida tizimli ravishda rivojlantirish, rag'batlantirish hamda samarali yo'naltirishga qaratilgan integratsiyalashgan jarayon sifatida talqin etiladi. Mazkur tushunchaning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u an'anaviy boshqaruv yondashuvlaridan farqli ravishda tashkilotning uzoq muddatli pedagogik va tashkiliy rivojlanishiga xizmat qiladi hamda bolalarning sifatli ta'lim va tarbiya olishini, ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-sonli<sup>1</sup> "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoridan tahliliy yondashuv asosida samarali boshqaruvni talab etmoqda. Mazkur hujjatning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limning uzluksizligi hamda uzviyligini ta'minlash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsiyalar, ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdan iborat.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 848-sonli<sup>2</sup> "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida joriy etilayotgan "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi direktorlar uchun xodimlar faoliyatini baholash, KPI asosida samaradorlikni o'lchash hamda moliyaviy va pedagogik jarayonlarni monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa inson resurslarini boshqarish jarayonining zamonaviy texnologik yondashuvlar asosida yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, pedagoglar uchun tashkil etilgan malaka oshirish kurslari (kamida 100 soat) hamda rahbarlar uchun menejerlik kurslari (kamida 144 soat) xodimlarning professional kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv inson resurslarini boshqarish jarayonini natijador va barqaror professional o'sish mexanizmiga aylantiradi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida direktorning boshqaruv kompetensiyalari inson resurslarini boshqarish jarayonini tizimli va maqsadli tashkil etish, xodimlarning malakasini muntazam oshirish va samaradorlikni nazorat qilish, shuningdek, raqamli platformalar orqali boshqaruv qarorlarini optimallashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Bunday yondashuv pedagogik jamoada barqaror hamkorlik muhitini shakllantiradi, innovatsion pedagogik amaliyotni keng joriy etadi hamda maktabgacha ta'lim sifati xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli<sup>3</sup> "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, sog'lom, faol va jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularni o'qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustdagi 531-sonli<sup>4</sup> qaroriga muvofiq, direktor lavozimiga nomzodlar menejerlik kurslarida tayyorlanib, tegishli sertifikatga ega bo'lishlari talab etiladi. Bu esa lavozimga tayinlash jarayonini shaffof va professional kompetensiyalarga asoslangan tizimga aylantiradi. Mazkur yondashuv pedagogik rahbarlarda nafaqat boshqaruv, balki inson resurslarini boshqarish kompetensiyalarini ham tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, me'yoriy-huquqiy hujjatlar inson resurslarini boshqarishda shaffoflikni ta'minlash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lib, mazkur jarayonni nazariy va amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois, inson resurslarini boshqarish maktabgacha ta'lim sifati oshirish, bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlash hamda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli<sup>5</sup> "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz ta'lim tizimini yaratish, kadrlarni shaffof tanlov asosida saralash hamda yuqori malakali, professional va intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tanlab olish mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Mazkur huquqiy normalar va texnologik yechimlar inson resurslarini boshqarish jarayonining nazariy tamoyillarini amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, "Bolalar bog'chasi" axborot tizimi nafaqat xodimlar faoliyatini monitoring qilish imkonini beradi, balki strategik boshqaruvning muhim tamoyillaridan biri bo'lgan ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, malaka oshirish kurslari pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, kadrlarning strategik fikrlash va boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishga ham yo'naltirilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2024 yildagi PF-152-son <https://lex.uz/uz/docs/-7128182>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.12.2024 йилдаги 848-сон <https://lex.uz/uz/docs/7271280>

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.05.2019 yildagi 391-son <https://lex.uz/docs/-4333062>

4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.08.2024 yildagi 531-son <https://lex.uz/docs/-7086100>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son <https://lex.uz/docs/-4327235>

Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish nafaqat kadrlar soni va ularning mehnat shartlarini tartibga solish, balki tashkilotning strategik maqsadlariga erishish yo'lida pedagogik xodimlarning salohiyatini to'liq va samarali ro'yobga chiqarishga qaratilgan kompleks tizim sifatida namoyan bo'ladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqotda inson resurslarini boshqarish tushunchasini o'rganishning metodologik asoslari sifatida tizimli, tahliliy va qiyosiy yondashuvlar qo'llanildi. Tizimli yondashuv inson resurslarini yagona boshqaruv tizimining integratsiyalashgan qismi sifatida ko'rib chiqishga xizmat qilsa, tahliliy yondashuv uning tarkibiy komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlashga imkon beradi. Qiyosiy yondashuv esa xalqaro va milliy tajribalarni o'rganish hamda ularni taqqoslash orqali ilmiy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, H. Umarovning tadqiqotlarida inson resurslarini boshqarish bilan bog'liq muhim yo'nalishlar sifatida kadrlar malakasini uzluksiz oshirish tizimining zarurligi, KPI asosida natijadorlikni baholash va rag'batlantirish mexanizmlarining ahamiyati, strategik hamkorlik hamda adaptiv boshqaruvda xodimlarning faol ishtirokini ta'minlash masalalari alohida ajratib ko'rsatilgan. Shuningdek, muallif boshqaruv jarayonlarini raqamli platformalar orqali avtomatlashtirish va tahlil qilishning dolzarbligini asoslaydi.

N.Sh. Abdullayeva ta'kidlaganidek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish tizimi zamonaviy usullarni joriy etish orqali kadrlarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda yosh avlodni ijtimoiy va iqtisodiy talablarga mos ravishda tayyorlashni ta'minlaydi.

"Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida klaster tizimini joriy etish natijasida malakali kadrlar, axborot resurslari va muassasalar o'rtasida bevosita hamkorlik yo'lga qo'yilib, ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi"<sup>6</sup>. Shuningdek, muallif fikricha, inson resurslarini samarali boshqarish orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini optimallashtirish bilan birga, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga ham munosib hissa qo'shadi. Bu esa pedagogik-psixologik jihatdan uyg'un muhitni shakllantirish, xodimlarni rag'batlantirish va ularning kasbiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Inson resurslarini boshqarish tushunchasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ta'lim sifati bevosita pedagog va xodimlarning kasbiy salohiyati, motivatsiyasi hamda boshqaruv tizimi samaradorligiga bog'liqdir.

A. Norboyevning fikricha, inson resurslarini boshqarish tashkilotda faoliyat yuritayotgan xodimlarni yollash, boshqarish va rivojlantirishga qaratilgan kompleks tizim bo'lib, inson faoliyatiga ta'sir etuvchi barcha jarayonlar va dasturlar mazkur tizim doirasida amalga oshiriladi. Muallif xodimlarni tashkilotning asosiy aktivlari sifatida baholab, ularni "inson kapitali" sifatida e'tirof etadi hamda inson kapitalining rivojlanishi tashkilot samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi<sup>7</sup>.

Sh.N. Qosimova maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining mehnat salohiyatini psixofiziologik va professional-malaka komponentlari asosida tahlil qiladi. Tadqiqot muallifi ta'kidlaganidek, psixofiziologik komponent – shaxsiy xususiyatlar, ijodkorlik, tashabbuskorlik va faoliyatga qiziqish – rahbarning zamonaviy sharoitlarda moslashuvchanligi va innovatsion yondashuvini belgilaydi. Shu bilan birga, professional-malaka komponenti doimiy o'rganish va malaka oshirishni talab etadi, bu esa rahbarlarning xalqaro "Horizon Europe" va "Erasmus+" dasturlari talablariga moslashuvini ta'minlaydi. Muallif, shuningdek, direktorlarning ta'lim darajasi, ish tajribasi va professional mobiliteti ularning mehnat salohiyatining muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa inson resurslarini boshqarish tizimida strategik qarorlar qabul qilish hamda xodimlarning professional rivojlanishini samarali yo'naltirish imkonini beradi<sup>8</sup>.

A. Usmonovning ta'rifiga ko'ra, inson resurslarini boshqarish tashkilotda xodimlardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bunda ish beruvchi o'z resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanadi, xodimlar esa o'z faoliyatidan moddiy va psixologik qoniqish hosil qiladi<sup>9</sup>. Mazkur yondashuv inson resurslarini boshqarishning muhim vazifalaridan biri sifatida tashkilot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, maktabgacha ta'limda inson resurslarini boshqarish tizimi faqat ma'muriy boshqaruv vositasi sifatida emas, balki pedagogik jarayonlar sifatini oshirish va har bir xodimning professional o'sishini ta'minlovchi strategik platforma sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuv xodimlarning malaka dara-

6 Abdullaeva, N. Sh. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga klaster tizimini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari. *Образование и инновационные исследования [Education and Innovative Research]*, № 4. ISSN 2181-1717 (E). <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.72.73.011>

7 Norboyev, A. Menejment asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

8 Nuriddinova, Q. S. (2024). Ta'lim tashkiloti rahbarlarining mehnat salohiyati komponentlari. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(9), 66–68.

9 Usmonova, A. (2025). Inson resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar va uni tatbiq etish usullari. *Modern Science and Research*, 4(6), 1034–1042.



jasini oshirish bilan birga, bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda natijada tashkilotning umumiy samaradorligini yuksaltiradi.

Ushbu yondashuv nazariy tahlillarga asoslanib, inson resurslarini boshqarish tushunchasiga oid mualliflik ta'rifini aniqlash uchun ilmiy asos yaratadi.

Mualliflik ta'rif. Inson resurslarini boshqarish – bu tashkilotda xodimlarning professional salohiyatini tizimli ravishda aniqlash, rivojlantirish, rag'batlantirish hamda samarali yo'naltirish orqali tashkilotning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlovchi integratsiyalashgan boshqaruv jarayonidir. Mazkur ta'rifga ko'ra, inson resurslarini boshqarish nafaqat xodimlarni ma'muriy jihatdan boshqarishni, balki ularning malakasi va motivatsiyasini oshirishni, jamoaviy samaradorlikni ta'minlashni hamda pedagogik jarayon sifatini yuqori darajada saqlashni nazarda tutuvchi strategik mexanizm sifatida talqin etiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash joizki, inson resurslari tashkilotning inson kapitali sifatida uning eng muhim va strategik aktivlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat ishchi kuchini, balki tashkilotning intellektual salohiyati va rivojlanish imkoniyatlarini ham ifodalaydi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson resurslari ko'pincha moliyaviy resurslar va moddiy aktivlarga nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ular tashkilotning raqobatbardoshligi hamda innovatsion rivojlanish darajasini belgilaydi (1-rasm).



1-rasm: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish jarayoni muhim strategik va tashkiliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mualliflik nuqtayi nazariga ko'ra, inson resurslarini boshqarish quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- strategik va iqtisodiy-pedagogik asoslangan yondashuv, bunda kadrlar resurslari hamda ularning ta'lim sifatiga qo'shgan hissasi chuqur tahlil qilinib, boshqaruv qarorlari ilmiy asosda qabul qilinadi;
- guruh va jamoa funksiyalarini farqlash, ya'ni guruh rasmiy lavozim va vazifalar asosida shakllansa, jamoa o'zaro hamkorlik va umumiy pedagogik maqsadga yo'naltirilgan barqaror tizim sifatida namoyon bo'ladi;
- strategik kompetensiyalarni rivojlantirish, bunda direktorning xodimlarni tanlash, joylashtirish va motivatsiya qilishga oid ko'nikmalari tizimli ravishda shakllantiriladi;
- gamifikatsiyaga asoslangan baholash, ya'ni xodimlarning professional rivojlanishi va jamoaviy samaradorligi resurslardan oqilona foydalanish hamda rag'batlantirish mexanizmlari orqali baholanadi.

Mazkur jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarishning asosiy komponentlari – xodimlar, ularning bilim va ko'nikmalari hamda salohiyati – va ularni boshqarish jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon xodimlarni yollash, tayyorlash va motivatsiyalash, mehnat sharoitlarini optimallashtirish hamda kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish orqali tashkilotning strategik maqsadlariga erishish mexanizmini ifodalaydi. Shu jihatdan, inson resurslarini boshqarish pedagogik samaradorlikni oshirish va tashkilotning inson kapitalini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasi pedagogik jarayon sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan strategik va tizimli boshqaruv faoliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur tushuncha kadrlarni tanlash, joylashtirish, rivojlantirish, baholash va rag'batlantirish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liq holda tashkil etishni, shuningdek, inson salohiyatini ta'lim sifati va tashkilot rivojlanishining asosiy omili sifatida e'tirof etishni nazarda tutadi. Inson resurslarini boshqarish maktabgacha ta'lim tashkilotida nafaqat ma'muriy vazifa, balki pedagogik samaradorlik, jamoaviy barqarorlik va strategik rivojlanishni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. <http://lex.uz/uz/docs/-7128182>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi 848-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini raqamlashtirish va maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <http://lex.uz/uz/docs/7271280>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <http://lex.uz/docs/-4333062>
4. Abdullaeva, N. Sh. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga klaster tizimini joriy etishning nazariy-metodologik asoslari. Образование и инновационные исследования [Education and Innovative Research], № 4, ISSN 2181-1717 (E). <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.72.73.011>
5. Norboyev, A. Menejment asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Nuriddinova, Q. S. (2024). Ta'lim tashkiloti rahbarlarining mehnat salohiyati komponentlari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(9), 66–68.
7. Usmonova, A. (2025). Inson resurslarini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar va uni tatbiq etish usullari. Modern Science and Research, 4(6), 1034–1042.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.